

XX ASR BOSHLARIDA "SADOI FARG'ONA" GAZETASIDA TURKISTON O'LKASIDAGI ENTOMOLOGIYA TARIXIGA OID MASALALARNING YORITILISHI

Annotatsiya. Maqolada XX asr boshida "Sadoi Farg'ona" gazetasi sahifalaridagi Turkiston o'lkasida qishloq xo'jaligi ekinlarini, mevali daraxtlarni zararkunanda hasharotlardan asrash va ularga qarshi kurash tarixiga oid manbalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Entomologiya, Turkiston entomologiya stansiyasi, qishloq xo'jaligi ekanlari, zararkunandalar, hasharotlar, chigirtkalar, bog'dorchilik, Parijskiy zelen dorisi.

ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ ИСТОРИИ ЭНТОМОЛОГИИ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ В ГАЗЕТЕ «САДОИ ФАРҒОНА» В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация. В статье исследованы источники по истории защиты сельскохозяйственных культур и плодовых деревьев от вредных насекомых и борьбы с ними, опубликованные на страницах газеты «Садои Фергана» в Туркестане в начале XX века.

Ключевые слова: Энтомология, Туркестанская энтомологическая станция, сельское хозяйство, вредители, насекомые, саранча, садоводство, Парижский зеленый препарат.

COVERAGE OF ISSUES RELATED TO THE HISTORY OF ENTOMOLOGY IN THE TURKESTAN REGION IN THE NEWSPAPER "SADOI FARG'ONA" IN THE EARLY 20TH CENTURY

Annotation. In the article, analyzes the materials of the newspaper "Sadoi Fergana" on the protection and control of agricultural crops and fruit trees in Turkestan at the beginning of the XX century.

Key words: Entomology, Turkestan entomological station, agriculture, pests, insects, grasshoppers, horticulture, Paris green drug.

XX asr boshlarida Turkiston milliy taraqqiyparvarlari o'lkaning ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotidagi muammolari bilan birgalikda Turkistonning tabiati, ekologiyasini ham asrashga alohida e'tibor qaratishgan. Xususan, jadidlar matbuotda aholini ekologik madaniyatini oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini, bog'larni, daraxtlarni, o'simliklarni hashoratlar va turli zararkunandalardan asrash, ularga qarshi kurashish borasida ko'plab maqolalar, amaliy maslahatlar va xabarlarini chop etib borishgan. Aynan "Sadoi Farg'ona" gazetasida o'lka tabiati, ekologiyasi, entomologiya sohasidagi muammolar, uni yechimiga oid ko'rsatmalar, yo'riqnomalar xabar va maqolalar ko'rinishida keng o'rin olgan. Shu jihatdan "Sadoi Farg'ona" gazetasi o'lkadagi entomologik holatni o'rganishda muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumotlarga qaraganda, 1898 yilda qishloq xo'jalik zararkunandalarini o'rganish maqsadida Turkiston qishloq xo'jalik jamiyati qoshida "Chigirtka qo'mitasi", keyinchalik 1911 yilda Toshkentda V.Plotnikov tomonidan "Turkiston entomologik stansiyasi" tashkil etilgan[1].

1914 yil 16 mayda "Sadoi Farg'ona" gazetasining 17-sonida Rossiya "Bog'dorchilik jamiyati"ning Bog'chasaroy sho'basi tomonidan Turkiston o'lkasiga "Bog'chalarimizga zarar va yerman qurtlar" nomli kitob pochta orqali yuborilganligi haqida xabar berilgan[2]. "Sadoi Farg'ona" gazetasining aynan shu sonida "Bog'dorlik daftarina" nomli xabarida "mazkur kitob

o'rtada 63 sahifalik bo'lib, ichida har xil daraxt va zararliq qurtlariga doir 55 g'acha qariyb mufassal rasmlari (suratlari) ham bordur. Lisoni bizam Turkiston lisoniga yaqin bo'lib, har kim anglarlikdir" deb, mazkur kitobning mazmun-mohiyati, xajmi borasida ma'lumotlar qayd o'tilgan [3].

"Sadoi Farg'ona" gazetasi sahifasidagi "Yana zararliq qurtlar" nomli xabarda "Xo'jand atrofida tut daraxtlariga qurt tushubdir. Bularning zohir bo'lmog'i ifakchilar orasida tashvishga sabab bo'ldi. Bu qurt 1911 yildan buyon zohir bo'lmay turub ekan. Toshkent entomologiya stansiyasi tarafidan bunga qarshi iloj va choralar ko'rmoqgacha boshlanadur" [4] deb ta'kidlanib, qishloq xo'jaligi sohasi vakillarini, aholini ekinlarni hasharotlarning zararlaridan himoyalashga chaqirilgan.

"Sadoi Farg'ona" gazetasining 1914 yil 7 may 13-sonidagi xabarda "Toshkent entomologiya stansiyasi tarafidan ziyonlik qurtlar bilan tezroq olishmoqlik uchun "Pomun" nomida mashinalar prokat, ya'ni muvaqqat foydalanib turmoq uchun ju'ziy bir baho bilan bog'dorlarga berilur ekan. Ushbu mashinalargacha 10 faqir suv sig'ar ekan. Buning ichigacha parijskiy zelen solinub daraxtlarni sug'oriladur. Bul mashinalar Toshkand entomologiya stansiyasida aqchagacha ham sotulub haqqi 53 so'm ekan"[5]ligi qayd etilib, soha mutaxassislarini, aholini hasharotlarga qarshi kurashda zamonaviy texnikalardan foydalanishga chorlangan. Mazkur xabarda texnikalardan Turkiston o'lkasidagi entomologik chora-tadbirlarda keng qo'llanilishi zararkunandalarga qarshi kurashda samarali ekanligi alohida ta'kidlangan.

1914 yil 7 mayda "Sadoi Farg'ona" gazetasida chop etilgan xabarda o'lkadagi entomologiya sohasidagi muammolarga e'tibor qaratilgan bo'lib, unda 1907 yilda Olma-Otada daraxtlarga zararli qurtlar paydo bo'lganligi, bog'bonlarning unda qarshi kurash yo'llari, uning samarali ta'siri borasida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, xabarda "... Bog'bonlar va mahalliy hukumatdorlar tarafidan ko'b iloj qilinub bo'lmay, oxirida qurtlar tuhum qo'ygandan keyin bahor vaqtida, nos talqonni ohak bilan aralashdurub, suv ko'yub moshina bilan daraxtlargacha sepib yurgondek qilib erdilar. Jamiki daraxtlar ul ofatdan salomatlandi"[6] deb yozilgan. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida bog'dorchilikka alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu soha ham daromadli, ham aholini asosiy tirikchilik manbai hisoblangan. Shu ma'noda jadidlar matbuotda bog'dorchilikdagi muammolar, xususan, ekinlarni, daraxtlarni, foydali o'simliklarni turli hasharotlardan, qurt-qumursqalardan asrash, hosilni nobudsiz yetishtirish, undan katta foyda olish yo'llari haqida aholiga, soha mutaxassislariga zarur yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar, xabarlarni muntazam chop etib turishgan.

XX asr boshlarida "Sadoi Farg'ona" gazetasi sahifalarida Toshkent entomologiya stansiyasining faoliyati, stansiyaning zararkunandalarga qarshi kurashdagi samarali ishtirokiga oid bo'lgan qimmatli ma'lumotlar berib borilgan. Xususan, "Sadoi Farg'ona" gazetasi keltirilgan quyidagi xabarda: "Hozirda Toshkandda qurt tushgon daraxtlarni Jipsin degan dori bilan sug'orub tajriba qiladurlar ekan. Bu dorining yaxshi foydasi tekgoni ma'lum bo'lubdur. Ammo (Parijskiy zelen) bilan sug'orilgon bog'largacha bul darajada yaxshi foyda tekmas ekan. Xo'qand uyezdi Isfarada zohir bo'lg'on o'ruk tamoman halok qilinub bo'lg'on ekan. Chunonchi yerli aholi Toshkent entomologiya stansiyasining so'zigacha va ko'rsotgon qoidalarigacha yaxshi quloq solub, vaqtida chora va muolajalarini ko'rmoqgacha ijtixod etgonlar ekan. Mana bul e'tibor va diqqatlari sababidan o'zlarining bog'larini halokatdan qutqarmoqgacha muvaffaq bulubdurlar"[7] deb qayd etilgan bo'lib, bunda entomologiya stansiyasining ilmiy xodimlarining zararkunandalarga qarshi kurashda qanday dori yoki pereparatlarni qo'llash foydali ekanligi borasida amaliy tavsiyalari keltirilgan. Bu tavsiyalarning jadid matbuotida chop etilishidan asosiy maqsad o'lka aholisining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilashga ko'mak berishdan iborat edi. Shuningdek, Turkiston bozorlarini meva-sabzavotlar bilan to'ldirish orqali oziq-ovqat taqchilligini oldini olish bo'lgan.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi qishloq xo'jaligi ekinlariga, bog'larga chigirtkalar tomonidan ham jiddiy xavf yetgan bo'lib, Toshkent entomologiya stansiyasi tomonidan chigirtkalarga qarshi kurashda ilmiy asoslangan holda chora-tadbirlar amalga oshirib borilgan. "Sadoi Farg'ona" gazetasining 1914 yildagi 16-sonida Golodnoy stepda va Ulinskiy, ko'hna Gvardskiy qishloqlari atrofida 20 desyatina, Xo'jand uyezdida Dorogomir stansiyasi atrofida 300

64 desyatina yerda chigirtka paydo bo'lganligi, ushbu zararkunandalarni yo'q qilish maqsadida mutaxassislar va texnikalar yuborilganligi to'g'risida bayonot berilgan. Shuningdek, xabarda Ho'qand uyezdining ayrim yerlarida chigirtka paydo bo'lganligi, Samarqand va Kattaqo'rg'on uyezdlarida chigirtkalarga qarshi kurash olib borilib, ularni yo'q qilinganligini qayd etilgan[8]. Shuningdek, gazetada Xo'jand, Chakmand uyezdlarining ba'zi yerlarida chigirtkalar paydo bo'lib, ekinlarga katta ziyon yetkazganligi, Ho'qand uyezdining ba'zi bir qishloqlarida esa chigirtkalar paydo bo'lib, bog'larga zarar yetkazishni boshlaganligi, buning oldini olish uchun Toshkent entomologiya stansiyasi tomonidan jiddiy chora-tadbirlar ko'rilayotganligi haqida xabarlar chop etilgan[9].

Umuman olganda, XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi floraning holati, qishloq xo'jaligi uchun zararkunanda hisoblangan hasharotlarga qarshi kurash, Toshkent entomologiya stansiyasi tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganishda jadid mutbuoti, xususan, "Sadoi Farg'ona" gazetasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan birlamchi manba hisoblanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон худудида табиий фанлар йўналишидаги илмий тадқиқотлар ва экспедициялар (XIX аср – XX аср бошлари) [Matn] / лойиха раҳбари Д.Х.Зияева. – Тошкент: Akademnashr, 2019. – Б.239-240.; Турсунов Р.Н. XX аср бошида Туркистон ўлкасида турли зараркунандалар билан кураш масалаларининг манбаларда акс этиши // Tamaddun nuri. 2021. 5-6-сон. – Б.68-74.
2. Хўқанд хабарлари. // Садои Фарғона. 1914 йил 16 май.
3. Боғдорлар дафтари. Хўқанд хабарлари. // Садои Фарғона. 1914 йил 16 май.
4. Яна зарарлик куртлар. // Садои Фарғона. 1914 йил 19-сон.; Турсунов Р.Н. XX аср бошида Туркистон ўлкасида турли зараркунандалар билан кураш масалаларининг манбаларда акс этиши // Tamaddun nuri. 2021. 5-6-сон. – Б.68-74.
5. Туркистон хабарлари. // Садои Фарғона. 1914 йил 7 май.
6. Идорага мактублар. // Садои Фарғона. 1914 йил 7 май.
7. Зарарланган дарахтларни дори билан суғормоқлик. Туркистон хабарлари. // Садои Фарғона. 1914 йил 9 май.; Турсунов Р.Н. XIX аср охири – XX аср бошида Туркистон ўлкасида энтомология станцияси фаолияти тарихига назар // Хоразм Маъмун Академияси ахборотномаси. 2022. 1-сон. – Б.210-214.
8. Чигиртка // Садои Фарғона. 1914 йил. 16-сон.
9. Чигиртка. Туркистон хабарлари. // Садои Фарғона. 1914 йил 18 июнь.; Турсунов Р.Н. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ekologik vaziyat va atrof-muhit muhofazasi masalalari [Matn]: Monografiya / R.N.Tursunov. – Toshkent: "Firdavs-Shoh nashriyoti". 2023. – 288 b.